

## **OLMOSH SO'Z TURKUMI HAQIDA BA'ZI MULOHAZALAR**

**Qurbonova Shodiya**

Toshkent shahar 196-sonli maktab ona tili  
va adabiyot fani o'qituvchisi

### **ANNOTATSIYA**

*Mazkur tadqiqot jarayonida o'zbek tili grammatikasida gap qurilishining vositachisi bo'lmish olmosh so'z turkumi bo'yicha ba'zi mulohazalar yuritilgan.*

***Kalit so'zlar:** olmosh, mustaqil so'zlar, derivatsiya, olmosh turlari, yasalishi.*

### **ABSTRACT**

*In this article analysis that some comments were discussed in the Uzbek grammar, a mediator of the talks.*

***Key words:** pronouns, independent words, derivation, types of pronouns, formation.*

### **KIRISH**

Olmosh, avvalo, bu so'zning etimologiyasiga e'tiborimizni qaratsak, olmosh–biror so'z o'rnida qo'llanadigan so'z turkumidir. Bu so'z asli “qo'lga ol”, “o'ziniki qil” – ma'nolarini anglatuvchi al – fe'lining “takror” ma'nosini anglatuvchi - ma qo'shimchasi qo'shilgan alma – shaklidan -sh harakat nomi qo'shimchasi bilan hosil qilingan, keyinchalik esa harakat nomi shaklidagi fe'l otga ko'chgan. O'zbek tilida a unilari a: unililariga almashgan. Ya'ni, ( al- + ma = alma - ) + sh = almash > almash shakliga kelgan.

Olmosh so'z turkumi boshqa so'z turkumlari ot, sifat, son, ravish so'z turkumlari o'rnida qo'llanuvchi so'z turkumidir. Olmoshlarning asosiy vazifasi va qaysi so'z turkumi o'rnida qo'llanishi matnda oydinlashadi. Olmoshlarning ma'nosi noaniq va umumiy bo'ladi. Ma'no va Grammatik xususiyatlarga ko'ra, olmosh umumlashgan predmet ( olmosh – ot: men, sen, u, kim, nima, hech kim, hech nima ), umumlashgan belgi ( olmosh – sifat: bu, shu, o'sha, qaysi, allaqanday, hech qanday ), umumlashgan miqdor ( olmosh – son: qancha, necha, shuncha, o'shancha ) bildiruvchi olmoshlarga bo'linadi. Olmoshlar noaniqligi, so'z yasalishining yo'qligi bilan boshqa so'z turkumlaridan farqlanadi. Olmoshlar ma'no va Grammatik xususiyatlariga ko'ra , quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Kishilik olmoshlari – men, sen, u, biz, ular bo'lib, shaxslar o'rnida ishlatiladi;
2. O'zlik olmoshi – o'z so'zidan iborat bo'lib, predmet ma'nosini kuchaytirib, ta'kidlab ko'rsatadi;

3. Ko'rsatish olmoshi – bu, shu, o'sha, u, ana, mana kabi so'zlar predmet va uning belgilarini ko'rsatadi;

4. So'roq olmoshlari – kim?, nima?, qancha?, qanday? kabi so'zlar predmet, belgi va miqdor haqida so'roqni bildiradi;

5. Belgilash – Jamlash olmoshi – hamma, bari, ba'zan, har nima, har qanday kabi so'zlar predmet va uning belgisini umumlashtirib, jamlab ko'rsatadi;

6. Bo'lishsizlik olmoshi – hech kim, hech qanday, hech qanaqa, hech qaysi kabi so'zlar inkor ma'nosini bildiradi;

7. Gumon olmoshi – allakim, allanima, nimadir, kimdir, birov kabi so'zlar predmet va uning belgisini, miqdorini taxminlab, chamalab ko'rsatadi;

Olmoshlar – zamonaviy til bilan aytganda, “ ichi bo'sh ” so'zlar hisoblanadi. Ushbu ichi bo'sh so'zlar vazifasi hozirda ham qadimda ham bir xil bo'lgan. Ya'ni, boshqa so'z turekumlariga ishora qilish, o'rnida qo'llanish xususiyatiga ega. Olmosh shunday murakkabki, u butun boshli matn o'rnida ham keladi. Bilamizki, bunday xususiyat boshqa so'z turkumlarida mavjud emas. Uni qadimgi va hozirgi holatini qiyoslab o'rganish olmoshning yangidan – yangi xususiyatlarini ochib beradi.

Shu jihati bilan olmoshning o'zbek tilidagi o'rni beqiyosdir.

olmosh so'z turkumi haqida Ra'no Sayfullayeva olib borgan tadqiqotini keltirib o'tmoqchiman:

Ma'lumki, so'zlar ma'noviy belgisiga ko'ra uch turga bo'linadi:

a) Mustaqil ma'noli so'zlar ( fe'l, ot, sifat, son, ravish, taqlid );

b) Bo'sh – ishora ma'noli so'z ( olmosh );

c) Yordamchi ma'noli so'z ( ko'makchi, bog'lovchi, yuklama, ko'makchi fe'llar );

“ Ishoraviylik ” ramzi bilan ataluvchi olmosh boshqa leksemalardan ajralib turadi. O'zbek tilshunosligida olmoshning doirasi va vazifasi zo'rma – zo'rakilik bilan ancha chegaralanib “ ot”, “ sifat”, “ son” o'rnida qo'llanuvchin so'z sifatida o'ta tor tushunilgan. Vaholanki, bu bilan olmoshning nafaqat ot, sifat, son, balki fe'l, ravish, undov, gap va hatto, matnni almashtira olish, ularga ishora etish xususiyati hisobga olinmagan. Olmosh guruhiga [ men ], [ sen ], [ u ], [ siz ], [ biz ], [ ular ] kabi shaxsga ; [ kim ], [ nima ], [ bu ], [ ana ], [ mana ], [ mana bu ] kabi predmetga; [ qanday ], [ bunday ], [ shunday ] kabi belgiga; [ buncha ], [ shunchga ], [ qancha ] kabi miqdorga; [ qachon ] kabi paytga; [ qayer ] kabi o'ringa; [ shunday bo'lmoq ], [ qanday qilmoq ] kabi harakat holatga ishora qiluvchi leksema kiradi. Shuni aytib

o'tish joizki, olmosh hamma vaqt ham qandaydir bir so'zni " almashtirib" , uning o'rnida kelavermaydi. Misol uchun:

1. Kim mehnat qilsa, u rohat ko'radi.
2. Men kecha keldim, sen buni bilasan.
3. Nima qilsam ham men o'zim bilaman.
4. Hamma mehmonlar biznikida.
5. Barcha mushkulotlar oson bo'ldi.

Yuqoridagi gaplarda kishilik, belgilash, o'zlik olmoshi hech bir so'zni almashinib qo'llanilmagan.

Arab tilshunosligida olmosh alohida so'z turkumi sifatida berilmagan, balki har bir so'z turkumi ichida " yashirin ma'noli so'z" ( zamirlar) sifatida alohida guruhlariga ajratilgan. Chunonchi, [ kitob ], [ daftar ], [ Abbos ] – aniq ma'noli ot bo'lsa, [ men ], [ sen ], [ kim ] - yashirin ma'noli ot ( zamir otlar) dir. Yoxud [ oq] , [ qizil ], [ chiroyli ] – ma'lum ma'noli sifat hisoblansa, [ bunday ], [ shunday ] kabilar " zamir sifat"lardir.

Olmoshlar shaxs, predmet, belgi yoki miqdorga xos bo'lgan umumiy ( mavhum ) ma'noni anglatadi. Olmosh bildiruvchi ma'no nutq jarayonida aniq yuzaga keladi. Ular o'zlari almashtiruvchi so'z kabi morfologik jihatdan o'zgaradi.

Olmosh qaysi so'z turkumi o'rnida qo'llansa, shu turkumga xos sintaktik vazifani ham bajaradi: O'qituvchi darsga kirdi. U o'quvchilar bilan salomlashdi. Olmosh o'zidan oldin aniqlovchi talab qilmaydi: *Hamma xursand va shod. U kitobni o'qidi.* Olmosh ifoda etadigan ishoraviy ma'nosiga ko'ra quyidagi ma'no guruhlariga bo'linadi:

1. ***Kishilik olmoshi.***
2. ***Ko'rsatish olmoshi***
3. ***O'zlik olmoshi.***
4. ***Belgilash olmoshi.***
5. ***So'roq olmoshi.***
6. ***Gumon olmoshi.***
7. ***Bo'lishsizlik olmoshi.***

I. **Kishilik olmoshi.** Bu olmosh shaxs olmoshi deb ham ataladi. Chunki shaxsga ishora qiladi. Shaxs olmoshining qo'llanishida aytim o'ziga xoslik bor. Shaxs o'z ma'nosidan tashqari ko'chgan holda qo'llanishi mumkin. Chunonchi:

1. Biz olmoshi II shaxs ko'plikdagi siz olmoshi o'rnida qo'llanadi: *Qani, endi biz ishga tushaylik.* Bundan tashqari tashviq ma'nosi ham anglashilib turadi.

2. Ko'plikni ifodalovchi olmosh birlik uchun qo'llanadi: *Bu ishni biz uddaladik.* Ushbu gapda men o'rnida ishlatilgan biz maqtanish, kibr ma'nosini ifoda etmoqda.

3. Men o'rnida biz olmoshi ishlatilib, kamtarlikni ifodalashi mumkin: *Biz bu maqolada yechimni kutayotgan muammoni olib chiqdik.*

4. Sen o'rnida siz, u o'rnida ular omoshi ishlatilib, hurmat ma'nosini ifodalaydi: *Siz bugun darsda faol ishtirok etdingiz. Men buvimni yaxshi ko'raman. Ular ham meni sevadi.*

5. Siz olmoshi, ko'pincha, birlik sonda hurmat ma'nosida qo'llanilganligi sababli ikkinchi shaxs ko'plik sonda sizlar shakli ishlatilishi mumkin: *Sizlar kelajagimiz.*

6. Kishilik olmoshiga { -lar } qo'shimchasi qo'shilganda turli ma'no voqealanadi:

- *Senlarga aytyapman ( kamsitish ma'nosi ).*

- *Sizlarda insof bormi? ( ko'plik ma'nosi ).*

7. O'zbek tilida III shaxs ko'plik olmoshi, aslida birlik sondagi olmoshning ko'plik shaklidir: u + lar.

**II. Ko'rsatish ma'nosini anglatuvchi olmosh** - ( [ bu ], [ shu ], [ mana ], [ u ], [ o'sha ], [ hov ] va boshqalar ) shaxs, predmet, belgini alohida ko'rsatish, ta'kid ma'nosi uchun xizmat qiladi. Ular ifodalovchi ( ishoraviy ) noma ham turlicha:

- Shaxs yoki predmetga ishora qiladi: - *Siz o'shami? ( A.Qodiriy )*

- Belgiga ishora qiladi: - *Menda ham shunaqa kitoblar bor.*

- Vaqtga ishora qiladi: - *Shu – shu Fotima kelmay qoldi.*

- O'ringa ishora qiladi: - *Siz – unda, biz – bunda.*

**III. O'zlik olmoshi.** Bu olmosh turi “ ta'kid”, “ tegishlilik” ma'nosini bildiradi: Mening o'zim bilaman. “ o'xshatish” ma'nosini ham matndagi o'z so'zi orqali hosil qilinadi: Onasining o'zi. “ Umumiylik”, “ noaniqlik” kabi ma'no – O'zim. ( shunchaki) turdagi gapda ro'yobga chiqadi.

**V. So'roq olmoshi.** Shaxs, predmet, belgi, harakatni aniqlash maqsadida ishlatiladi. Ular quyidagiga bo'linadi:

- Shaxsga nisbatan qo'llanuvchi olmosh ( [ kim ], [ kimlar] );

- Voqea – hodisa, predmetga nisbatan qo'llanuvchi olmosh ( [ nima ], [ nimalar ] );

- Belgini aniqlashga qaratilgan olmosh ( [ qanday ], [ qanaqa ] );

- Sabab va maqsadni aniqlashga qaratilgan olmosh ( [ nega ], [ nima uchun ] );

- Miqdorga nisbatan ishlatiluvchi olmosh ( [ necha ], [ qancha ] );

- Harakat – holatga nisbatan ishlatiluvchi olmosh ( [ nima qildi ], [ nima bo'ldi ] );

- O'rin ma'nosini ifodalovchi so'roq ( [ qani ], [ qayerda ] );
- Payt ma'nosini ifodalovchi so'roq ( [ qachon ], [ qachongacha ] );

Bunday olmoshlar faqat so'rash ma'nosini yuzaga chiqarmaydi, ma'noni bo'rttirish ( [ kimki ], [ nimaki ]), ritorik so'roq ( Men sizga nima dedim?! ), taajjub ( Buning nimasi yomon?! ) kabi ma'noni ham ifoda etadi.

V. **Belgilash olmoshi.** [ Har ] so'zi belgilash olmoshi bo'lib, ko'pincha, so'roq olmoshi bilan birikib keladi va qo'shma belgilash olmoshi yasaydi. Jamlik ifodalovchi olmosh predmet, shaxs, belgiga nisbatan yig'indini, to'dani ifodalaydi: [ hamma ], [ yalpi ], [ har kim ], [ barcha ], [ bari ], [ butun ].

VI. **Gumon olmoshi** muayyan predmet, shaxs, belgi yoki harakat xususida o'ta mavhum tushunchani bildiradi. So'roq olmoshi bilan qo'shib keladigan [ alla - ] va [ - dir] birligi ushbu olmoshga noaniqlik ma'nosini kiritadi.

VII. **Bo'lishsizlik olmoshi** ma'no jihatdan tasdiqqa nisbatan zidlikni bildiradi va [ hech ] so'zi bilan hosil qilinadi. Bu olmosh gapni ( fikrni) inkorga aylantiradi: [ hech nima ], [ hech kim ], [ hech qachon ], [ hech mahal ].

Til tarixida ham , hozir ham ba'zan juda ko'tarinki, tantanovor nutqda kamtarinlik uchun, manmanlik qilmaslik maqsadda [ men ] kishilik olmoshi o'rnida [ kamina ], [ faqir ], [ banda ] so'zi qo'llaniladi. Bular tilshunosligimizda ot – olmosh nomini olgan. Olmosh – nutqni o'rinsiz takrordan tozalashning, fikrni ixcham bayon qilishning muhim vositasi hisoblanadi. U gapda turli xil sintaktik vazifalarni bajarib keladi:

1. Mening o'zom bu yukni ko'tara olmas edim.
2. Vazifamiz – shu.
3. Qanday kishi xor bo'lur?
4. Bahor keldi seni so'roqlab.

**Olmosh derivatsiyasi.** *Olmosh o'ziga xos so'z yasash tizimiga ega. U – affiksatsiya va kompozitsiya usuli. Ko'rsatish, belgilash – jamlash, gumon, bo'lishsizlik olmoshlari sirasiga yasalmalari ham mavjud. Shuningdek, o'zga turkum so'zlaridan derivatsiyaning boshqa ko'rinishlari asosida ham olmosh vujudga kelgan: [ birov ], [ butun ], [ yalpi ], [ jami ], [ falonchi ] kabi.*

*Sintaktik nazariyalarda olmosh qo'shma gap qismlarini bog'lovchi vosita sifatida qaraladi.*

*Matn tilshunosligida olmosh matn qismlarini bog'lovchi vosita sifatida qaraladi : Siz o'shami?*

*Olmosh matnda zidlanishni yo'qotib, mo'tadillashish ( neytralizatsiya) holatiga o'tadi. Ya'ni , olmosh qatnashgan gapda ko'pincha zidlanish yo'qoladi.*

*Familiyangiz nima? - belgiga so'roq.*

*Nima ishlar qildingiz? - narsaga so'roq.*

*Yuqoridagi gaplar o'rtasidagi oppozitsiya yo'qolgan.*

Olmosh – ot, sifat, son, ravish, so'z, so'z birikmasi va gap o'rnida almashinib keladi.

Quyidagi turkumlarga tegishli ayrim so'zlar olmoshga ko'chadi:

1. Ot : odam, kishi, inson, narsa, ish;
2. Sifat : ba'zi, boshqa, ayrim, tubandagi, quyidagi;
3. Son : bir;

Umuman olganda , bir, har, hech so'zlari bilan keladigan ko'pgina so'zlar olmoshga ko'chishi mumkin : hech narsa, bir narsa, har yerda.

### **XULOSA.**

Xulosa qilib aytish mumkinki, o'zbek tilida olmoshning leksik-semantik xususiyatlari, uning tuzulishi, turlari, olmoshlarning badiiy nutqda tutgan o'rni beqiyosdir. Olmoshning ma'nosini qaysi so'z turkumi o'rnida kelishi va gapning o'zidan bilib olishimiz mumkin. Olmosh nafaqat so'z turkumlari o'rnida, balki so'z birikmasi va gap o'rnida kelish xususiyatiga ham ega.

Olmoshlar yuqoridagi xususiyati bilan boshqa so'z turkumlaridan farq qiladi. Olmosh so'z turkumini o'rganish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

### **REFERENCES**

1. Sayfullayeva R., Mengliyeva B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili, -T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2010.
2. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili, -T.: " O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2009.
3. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Nabiyeva D. Ona tili. Umumta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik, -T.: " Tasvir" nashriyoti, 2017.
4. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov Sh. Ona tili. Umumta'lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik, -T.: " Tasvir" nashriyoti 2006.
5. Mahmudov N., Nurmonov A. O'zbek tilining nazariy grammatikasi, -T.: " O'qituvchi" 1995.
6. Mustafayev, U. U., & Mustafayeva, S. U. (2021). REFORMING THE TEACHING OF PHILOSOPHICAL SCIENCES IN THE PERIOD OF THE FORMATION OF THE THIRD RENAISSANCE THE NEED FOR A NEW UZBEKISTAN. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(11), 639-645.